
Ijtimoiy himoyaga muhtojlarga bayram sovg'alari ulashildi

O'zbek xalqi azal-azaldan bolajon. Yurtimizning qaysi bir go'shasiga bormang, bolalarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarning guvohi bo'lasiz. Farzandlar ko'zidagi quvonchni ko'rib, qalbingiz faxr va g'ururga to'ladi.

Bugun Toshloq tumanining "Yangiyo'l" mahallasida "TOSHLOQ-FRUITS EXPORT" MCHJ tomonidan Mustaqilligimizning 33 yilligi munosabati bilan "Bolalarga bering dunyoni!" shiori ostida xayriya bayram tadbiri o'tkazildi.

Bayram tadbiriga mahallaning kattayu-kichigi jam bo'lishdi. Tadbirkor homiyligi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj, chin yetim bolalarga bayram sovg'alari topshirildi.

Tadbirda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda sektor rahbarlari ishtirokchilarni bayram bilan qutladilar.

2024-08-27 17:17:35